
Tashabbusli byudjet: Chek Jalaer mahallasidagi ichki ko'chalarni asfal'tlash ishlari yakuniga yetmoqda

□ Rishton tumanida tashabbusli byudjet asosida olib borilayotgan ishlar hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yanada yaxshilashga xizmat qilyapti. Mazkur loyihada o'z tashabbuslari bilan faol qatnashgan mahallalardagi yo'l, ichimlik suv, elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda.

✿ «Chek Jalaer» mahalla fuqarolar yig'ini aholisi ham mazkur loyihada faol ishtirok etib, ko'plab tashabbuslarining g'oliblar qatoridan o'rin olishiga erishishdi. Hududdagi aholini uzoq yillardan beri ichki yo'llardagi noqulayliklar qiynab kelardi. Bu esa aholining haqli e'tiroziga sabab bo'lardi. Ushbu muammoga esa tashabbusli byudjet jarayoni yechim bo'lmoqda.

???? Mahalla aholisining ichki ko'chalarni asfal'tlashtirish yuzasidan ilgari surilgan tashabbusni amalga oshirish uchun mablag' ajratilib, Chek Jalaer MFY hududidagi ko'chalarda asfal'tlash ishlari yakuniga yetmoqda

- Prezidentimiz tashabbusi bilan mahallalardagi infratuzilma uchun "Tashabbusli byudjet" orqali aholi ovoz bergan loyihalarga ajratilishi belgilangani bigza qo'l kelmoqda, deydi "Chek Jalaer" mahalla fuqarolar yig'ini raisi - Zokirjon Haydarov. - Muhimi, "Tashabbusli byudjet" - mamlakatimizda yosh avlod kamoli yo'lida olib borilayotgan yangilanish hamda islohotlarga hamohang loyiha ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Aynan "Tashabbusli byudjet" tufayli mahallamiz imkoniyatlari infratuzilma yaxshilanmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2024-08-19 10:29:03